QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.020

UVAYSIY DEVONINING IKKI HAYOTI: QO‘LYOZMA KOMPOZITSIYASIDAN NASHRIY TALQINGACHA

Eshonova Salimaxon Nishonbek qizi,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
Sharq mumtoz adabiyoti bo‘limi mudiri
e-mail: *salima_khony@mail.ru*
ORCID: *0009-0002-2038-6740*
UDK: *821.512.133.09*

Annotatsiya. Maqolada XIX asr Qo‘qon adabiy muhitining yirik vakili Jahon Otin Uvaysiy devoni qo‘lyozma kompozitsiyasi va nashriy talqin munosabati nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Asosiy manba sifatida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 1837 ashyo raqami bilan saqlanayotgan qo‘lyozma hamda shoir asarlarining turli yillardagi nashrlari qiyosiy o‘rganilgan. Devonning janriy-kompozitsion tuzilishi, hamd va na’tlarning diniy-poetik vazifasi, taxmislarda salaflari bilan ijodiy musobaqa xususiyatlari tahlil qilingan. Qo‘lyozmadagi she’rlarning janrlar bo‘yicha tarkibi va joylashuvi nashrlar bilan qiyoslanib, nashriy tanlov natijasida yuzaga kelgan matniy va kompozitsion o‘zgarishlar aniqlangan. Nashrlarga kiritilmagan 27 g‘azal, 7 muxammas va 2 musaddas devonning to‘liq nashrida manba o‘laroq xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari qo‘lyozma devonni she’rlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit adabiy tizim sifatida baholash imkonini beradi. Shuningdek, Uvaysiyning mumtoz devonnavislik an’anasini davom ettirish bilan birga, uni individual ijodiy tajriba asosida boyitgani asoslangan. Olingan natijalar shoir devonining kelgusidagi to‘ldirilgan yig‘ma-qiyosiy nashrini tayyorlash uchun manbaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Uvaysiy, devon, qo‘lyozma, devonnavislik, kompozitsiya, hamd, na’t, taxmis, intertekstuallik, matnshunoslik, nashriy talqin.*

ДВЕ ЖИЗНИ ДИВАНА УВАЙСИ: ОТ РУКОПИСНОЙ КОМПОЗИЦИИ К ИЗДАТЕЛЬСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация. В статье диван Джахан Атин Увайси, одной из крупнейших представительниц Кокандской литературной среды XIX века, исследуется с точки зрения соотношения рукописной композиции и издательской интерпретации. В качестве основных источников сравнительно изучены рукопись, хранящаяся под

инвентарным номером 1837 в Институте востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан, а также издания произведений поэтессы разных лет. Анализируются жанрово-композиционная структура дивана, религиозно-поэтическая функция хамдов и на‘тов, а также особенности творческого соперничества с предшественниками в тахмисах. Жанровый состав и расположение стихотворений в рукописи сопоставлены с печатными изданиями, что позволило выявить текстовые и композиционные изменения, возникшие вследствие издательского отбора. Установлено, что не включённые в существующие издания 27 газелей, 7 мухаммасов и 2 мусаддаса могут служить важным источником при подготовке полного издания дивана. Результаты исследования позволяют рассматривать рукописный диван не как простое собрание стихотворений, а как целостную литературную систему, элементы которой взаимосвязаны между собой. Обосновано также, что Увайси, продолжая классическую традицию составления дивана, обогатила её собственным творческим опытом. Полученные результаты могут служить источниковедческой основой для подготовки в будущем дополненного сводно-сопоставительного издания дивана поэтессы.

Ключевые слова: *Увайси, диван, рукопись, диваносоставление, композиция, хамд, на‘т, тахмис, интертекстуальность, текстология, издательская интерпретация.*

THE TWO LIVES OF UVAYSI’S DIVAN: FROM MANUSCRIPT COMPOSITION TO EDITORIAL INTERPRETATION

Abstract. This article examines the divan of Jahon Atin Uvaysi, one of the major representatives of the nineteenth-century Kokand literary milieu, with particular attention to the relationship between manuscript composition and editorial interpretation. The principal sources are the manuscript preserved under inventory no. 1837 at the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan and various editions of the poet’s works published at different times. The study analyzes the genre-compositional structure of the divan, the religious-poetic function of *hamd* and *na‘t*, and the features of creative emulation of earlier poets in Uvaysi’s *takhmises*. The genre composition and arrangement of poems in the manuscript are compared with those in printed editions, making it possible to identify textual and compositional changes resulting from editorial selection. The study demonstrates that 27 ghazals, 7 mukhammases, and 2 musaddases omitted from existing editions constitute important source material for a complete edition of the divan. The findings make it possible to view the manuscript divan not merely as a collection of poems, but as an integrated literary system whose components are structurally and semantically interconnected. The article further argues that, while continuing the classical tradition of divan compilation, Uvaysi enriched it through her individual creative practice. The results provide a source-based foundation for the preparation of an expanded consolidated comparative edition of the poet’s divan.

Keywords: Uvaysi, divan, manuscript, divan compilation, composition, *hamd*, *na‘t*, *takhmis*, intertextuality, textual criticism, editorial interpretation.

KIRISH

Sharq mumtoz adabiyotida devon faqat she’rlar yig‘indisi emas, balki muayyan poetik dunyoqarash, janriy tasnif, adabiy an’ana va muallifning o‘z ijodiy merosini tasavvur qilish tarzini ifodalovchi murakkab kompozitsion tizimdir. Shu ma’noda devonning qo‘lyozma holati bilan keyingi nashrlari o‘rtasidagi munosabatni faqat “matn bor – matn yo‘q” tarzida baholash yetarli emas. Qo‘lyozmadagi she’rlarning joylashish tartibi, diniy-adabiy muqaddima vazifasini bajaruvchi hamd va na’tlar, janrlarning nisbati, salaflar bilan badiiy musobaqani namoyon etuvchi taxmislar hamda muayyan she’rlarning nashrlarga kiritilishi yoki kiritilmasligi sabablari birgalikda devonning tadqiqi tarixini ham belgilaydi (De Blois, 1995, 432–438; İpekten, 1994; Akün, 1994).

Jahon otin Uvaysiy merosi ana shu nuqtai nazardan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning adabiy merosi, bir tomondan, XIX asr Qo‘qon adabiy muhitidagi mumtoz devonnavislik an’anasining davomi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, qo‘lyozmalar, nusxalar va turli davr nashrlarida turlicha namoyon bo‘lgan dinamik matniy tizimdir. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 1837 inventar raqami bilan saqlanayotgan qo‘lyozmani keyingi nashrlar bilan qiyoslash shoira ijodining nafaqat matniy, balki kompozitsion va ma’noviy o‘zgarishlarini kuzatish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda “qo‘lyozma talqini” va “nashriy talqin” tushunchalari shartli-analitik ma’noda qo‘llaniladi. “Qo‘lyozma talqini” deganda qo‘lyozmada saqlangan janriy tartib, she’rlar majmuasi va ular orqali namoyon bo‘ladigan mualliflik-kompozitsion butunlik nazarda tutiladi. “Nashriy talqin” esa turli tarixiy sharoitda nashrga tanlab olingan, ommalashgan va kitobxon tasavvurida Uvaysiy ijodining asosiy qiyofasini shakllantirgan matnlar majmuasini anglatadi. Bu ikki qatlam bir-biriga mutlaqo qarshi qo‘yilmaydi; aksincha, ularni qiyosiy o‘rganish shoira merosining tarixiy harakatini tiklashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda ko‘tarilgan muammo shundan iboratki, Uvaysiy merosi haqidagi tasavvur uzoq vaqt, asosan, nashr etilgan matnlar asosida shakllangan. Vaholangi, qo‘lyozma va nashrlar tarkibining qiyosiy tahlili ayrim diniy-irfoniy she’rlar, hamd-na’tlar va boshqa matnlarning nashrlardan chetda qolganini ko‘rsatmoqda. 1959 va 1963 yillardagi asosiy nashrlar, keyingi saylanma va to‘plamlar shoira merosini ommalashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, ularni qo‘lyozma kompozitsiyasi, janriy tizim va tekstologik farqlar bilan birga o‘rganish zarur.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – Uvaysiy devonining qo‘lyozma kompozitsiyasi bilan turli davr nashrlarida shakllangan matniy tarkibi o‘rtasidagi munosabatni ochish, diniy-irfoniy mazmundagi she’rlar va taxmislarning devon butunligidagi o‘rnini belgilash hamda nashriy tanlov shoira poetik qiyofasini qay darajada o‘zgartirganini tahlil qilishdir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Uvaysiy devonini alohida she’rlar majmuasi sifatida emas, balki “qo‘lyozma talqini” va “nashriy talqin” o‘rtasida harakatlanuvchi kompozitsion tizim sifatida o‘rganishda ko‘rinadi. Qo‘lyozmadagi hamd-na’t qatlami, taxmislar va janriy ketma-

ketlikning nashrlardagi holati bir butun tizimda qiyoslanib, “eng to‘liq matn” bilan “eng to‘liq kompozitsiya” bir xil tushuncha emasligi asoslanadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati devon kompozitsiyasi, janr poetikasi, matnshunoslik tarixini o‘zaro bog‘liq holda talqin etish bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa Uvaysiy merosining tanqidiy yoki yig‘ma nashrini tayyorlashda qo‘lyozmadagi she’rlar tartibi, janriy funktsiya, variantlar va nashriy tanlovni birgalikda hisobga olish zaruratini ko‘rsatishdan iborat.

ADABIYOTLAR

Tadqiqotning asosiy manbasini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida inv. № 1837 raqami bilan saqlanayotgan Jahon otin Uvaysiy kulliyotidagi shoira devoni tashkil etadi. Kulliyotning 1b–94b varaqlarida devon, 98b–119b varaqlarida Imom Hasan va Husayn voqealariga bag‘ishlangan, 120a–126b varaqlarida “Voqeoti Muhammad Alixon” dostonlari joylashgan. Qo‘lyozma 1274/1857–58 yilda Muhammadshoh Yunusxon Eshonxo‘ja o‘g‘li tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning qog‘ozi, xati, muqovasi, poygirlari va kitobat belgilarining tavsifi qo‘lyozmalar katalogi ma’lumotlari bilan solishtirildi (Sobraniye vostochnix rukopisey, 2023, 483–484).

Qiyosiy manba sifatida Uvaysiy devoni va she’rlarining 1959, 1963, 1980, 1983, 1992, 1993, 2010 va 2022 yillardagi nashrlari jalb qilindi. 1959 yilgi va 1963 yilgi “Devon” nashri asosiy matniy tayanchlar sifatida, keyingi to‘plamlar esa she’rlarning tanlanishi, takroriy nashri va janriy belgilashdagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun foydalanildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda manbashunoslik va kodikologik-paleografik kuzatuvlar orqali qo‘lyozmaning tashqi va ichki belgilari tavsiflandi; qiyosiy-matnshunoslik usuli bilan qo‘lyozma va nashrlar tarkibi solishtirildi; janriy-kompozitsion tahlil orqali hamd, na’t, g‘azal, muxammas, taxmis va musaddaslarning devon ichidagi funktsiyasi o‘rganildi. Intertekstual tahlil taxmislarda salaflar matni bilan ijodiy muloqotni, retseptiv yondashuv –talqin jarayoni esa qo‘lyozmadan nashrga o‘tish jarayonida Uvaysiy adabiy qiyofasining shakllanishini yoritishga xizmat qildi.

Qiyoslash mezonlari sifatida she’rning qo‘lyozmadagi o‘rni, janriy tarkibi, nashrda mavjud yoki mavjud emasligi, she’rlar ketma-ketligi, diniy-irfoniy mavzuning salmog‘i va taxmislardagi mazmun izchilligi belgilandi. Qo‘lyozmadagi she’rlar soni va nashrlar bilan farqi bevosita ular tarkibining qiyosiy hisobi asosida aniqlandi; shu sabab bu raqamlar avvalgi tadqiqotlardagi hisoblardan farqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hamd g‘azallarning tavhid va munojot ko‘rinishlari hamda na’tlarning vasf va me’rojnoma tiplari maxsus tadqiq etilgan (Günay, G‘afforova, 2018, 9, 12–14; G‘afforova, 2001, 10–13). Uvaysiy merosi haqidagi mavjud tadqiqotlarda ham janr, poetika va adabiy ta’sir masalalari turli yo‘nalishlarda yoritilgan. Muxammas xususiyatlari hamda Uvaysiyning salaflari g‘azallariga bog‘lagan taxmislari haqida ham muayyan natijalar mavjud (Haqqul, 1982, 7–8; Adizova, 2020, 145–155; Asqarov, 2022, 27–31; Ro‘ziboyev, 2022, 19–20, 35–38;

Isakova, 2017, 150–152). Tadqiqotda mazkur natijalar qo‘lyozma kompozitsiyasi va nashr tarixi bilan bog‘lab, janrlarning devon butunligidagi vazifasini qayta baholaydi.

Qo‘lyozma devon: matn va kompozitsion tizim

Sharq mumtoz adabiyotida devon tuzish muayyan an’ana va kompozitsion tamoyillarga tayanadi. “Devon” atamasi dastlab ma’muriy-ro‘yxat ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik muayyan shoirning she’riy merosi jamlangan kitobni anglatuvchi adabiy terminga aylangan (De Blois, 1995, 432–438; Ro‘ziboyev, 2022, 19–20,). Devon tarkibida hamd, na’t, munojot, qasida, g‘azal, muxammas, musaddas, ruboiy, tuyuq, qit’a, fard kabi janrlarning muayyan tartibda, alifbo tizimida joylashishi muallif yoki kotibning tartib berish printsipini namoyon etadi.

Uvaysiy devoni ana shu an’anani XIX asr Qo‘qon adabiy muhiti sharoitida davom ettiradi. Bu davrda Qo‘qon muhim adabiy-madaniy markaz sifatida shakllangani va saroy atrofida ijodkorlar muhiti faollashgani tadqiqotlarda qayd etilgan (Erkinov, 2011, 20–33; Pardayev, 2025, 503–507; Qobilova, 2007; Eşonova, 2026, 534–542; Umarova, 2022, pp. 196–200; Tugalova, 2025, 887–889). Devon tuzishning o‘zi ijodkor merosini muayyan yaxlitlik va tartibda ifodalashni anglatadi. Bu jihatlar Uvaysiy devoni qo‘lyozmasining janriy tarkibi va she’rlar joylashuvida namoyon bo‘ladi.

1837 inventar raqamli qo‘lyozma aslida kulliyot xususiyatiga ega. Unda devon bilan birga Imom Hasan va Husayn voqealariga bag‘ishlangan doston hamda “Voqeoti Muhammad Alixon” asari joylashgan. Qo‘lyozmaning 1274/1857–58 yilda Muhammadshoh Yunusxon Eshonxo‘ja o‘g‘li tomonidan ko‘chirilgani kolofon qaydidan ma’lum. Uning novvotrang Qo‘qon qog‘oziga nasta’liq xatida ko‘chirilgani, she’rlarning ikki ustun joylashgani, poygirlarning mavjudligi, muqova va sahhoflikka oid qaydlar qo‘lyozmaning kitobat tarixini aniqlash imkonini beradi (Sobraniye vostochnix rukopisey, 2023, 483–484). Bunday belgilar matnni faqat mazmun manbai sifatida emas, balki muayyan tarixiy-madaniy muhitda yaratilgan asar sifatida ham o‘rganishni tavozo etadi.

Qo‘lyozma tarkibini qayta o‘rganish natijasida unda 267 ta g‘azal mavjudligi, ular orasida 5 ta hamd, 6 ta na’t va 2 ta soqiynoma mazmunidagi g‘azallar borligi aniqlandi. Shuningdek, musalsal, muxammas, taxmis va musaddas kabi janrlar ham devon tarkibidan o‘rin olgan. (Devon, inv. № 1837, v. 1*b*–94*b*). Muhimi, she’rlar alifbo tartibida joylashtirilgan bo‘lsa-da, janrlar bir-biridan qat’iy ajratilmagan. Bu holat Uvaysiy devoni kompozitsiyasida ikki tamoyil – alifbo tartibi va janriy aralashlik – bir vaqtda amal qilganini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda devonni “she’rlar ro‘yxati” sifatida emas, balki ichki semantik harakatga ega tizim sifatida ko‘rish zarur. Dastlabki hamd va na’tlar kitobxonni lirik qahramon “men”ining shaxsiy kechinmalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib kirmaydi. Avval olamning yaratilishi, Xoliq va maxluq munosabati, Payg‘ambar Muhammad a.s. siymosi va me’roj kabi diniy-ma’rifiy mazmundagi she’rlar orqali sharqona islomiy poetik tasavvur hosil qilinadi. Keyin ishq, hijron, visol, jon, nafs, fano, sabr, vafo kabi tushunchalar shu ma’naviy sarhad ichiga joylanadi. Demak, devonning bosh qismi butun keyingi lirikaning semantik kalitini beruvchi vazifani bajaradi.

Qo‘lyozmadan nashrga: matniy tanlov va kompozitsion siljish

Uvaysiy merosining keyingi tarixi qo‘lyozmadagi kompozitsion tizimning nashrlarda qanday aks etgani masalasini qo‘yadi. Shoira devonining 1959 va 1963 yillarda amalga oshirilgan nashrlari shoirani keng kitobxon ommasiga tanitishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Keyingi 1980, 1983, 1992, 1993, 2010 va 2022 yillardagi to‘plam va nashrlar ham asosan mazkur matniy an’anaga tayandi. Biroq nashr tarixini qo‘lyozma bilan qiyoslashda muhim farqlar ko‘rinadi.

1837 raqamli qo‘lyozma tarkibini nashrlar bilan qiyoslash natijasida, undagi 27 ta g‘azal, 7 ta muxammas va 2 ta musaddasning mavjud nashrlarga kiritilmagani aniqlandi. Aksincha, nashrlarda mavjud bo‘lgan bir qator she’rlar mazkur qo‘lyozmada uchramaydi. Bu holat Uvaysiy devonining yagona matniy manba bilan cheklanmasligini, Andijon nusxalari va boshqa manbalar ham yig‘ma matn yaratishda muhim ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qo‘lyozmada bor, ammo nashrlarda yo‘q matnlar “nashriy tanlov” masalasini alohida o‘rganishga majbur qiladi.

Nashrga tayyorlash jarayoni tabiatan tanlovni talab qiladi. Ayniqsa, saylanma nashrlarga davr talabi, matnning holati va tahrir siyosati, hajm, kitobxon auditoriyasi kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, har bir tushib qolgan she’rni avtomatik ravishda mafkuraviy tsenzura natijasi deb baholash ilmiy xolislikka to‘g‘ri kelmaydi. Biroq qo‘lyozmadagi diniy-irfoniy qatlamni 1959 va 1963 yilgi nashrlar bilan qiyoslash ayrim hamd, na’t va boshqa diniy mazmundagi matnlar nashr tarkibida aks etmaganini ko‘rsatadi; mazkur holat davrning adabiy-nashriy siyosati bilan birga o‘rganilishi lozim.

Masalaning eng muhim jihati – alohida she’rning yo‘qolishi emas, balki kompozitsion nisbatning o‘zgarishidir. Agar devonning boshidagi hamd va na’tlar qisqarsa, kitobxon Uvaysiy lirikasiga butkul boshqa nazar bilan qaraydi, yondashadi. Qo‘lyozmada Xoliq madhi va Payg‘ambar a.s. vasfi bilan boshlangan poetik talqin keyingi nashrda ishqiy yoki ijtimoiy lirika qadar aks etgan. Natijada, shoiraning poetik “portreti”da diniy-irfoniy qatlamning salmog‘i kamayib, aksincha, uni ijtimoiy masalalar girdobida o‘ralashib, qolib ketgan ayol sifatida gavdalantiradi.

Shu ma’noda nashr faqat matnni ko‘paytirmaydi, u muallifni qayta tartiblaydi. Noshir yoki tuzuvchi qaysi she’rni kiritishi, qaysini chiqarish, qaysi tartibda berish orqali kitobxon uchun yangi kompozitsion manzara yaratadi. Buni o‘ziga xos “nashriy konuniyat” deb atash mumkin. Uvaysiyning XX asrdagi adabiy qiyofasi ham aynan nashrlar, darsliklar, antologiyalar va tadqiqotlar orqali shakllangan. Shu bois, qo‘lyozma va nashr o‘rtasidagi farq matnshunoslik masalasigina emas, adabiy retseptsiya – matniy talqin masalasi hamdir.

Qo‘lyozmadan nashrga o‘tishdagi yana bir muhim masala – janr tasnifidir. Qo‘lyozmada ayrim she’rlar janr nuqtai nazaridan aralash joylashtirilgani holda nashrda ular muayyan sarlavha yoki janr nomi bilan beriladi. Shu jarayonda matnning o‘qilish tarzi ham yo‘naltiriladi. Masalan, hamd yoki na’tni oddiy g‘azal sifatida taqdim etish uning funktsional vazifasini xiralashtirishi mumkin, aksincha, uni “hamd” yoki “na’t” deb belgilash kitobxonni mazmunni diniy-poetik an’ana doirasida o‘qishga, fikrlashga undaydi.

Shu sababli, Uvaysiy merosining tanqidiy yoki yig‘ma nashrini tayyorlashda matnning o‘zi bilan bir qatorda uning qo‘lyozmadagi o‘rni, oldingi va keyingi she’rlar joylashuvi, janriy

funktsiyasi va variantlari ham hisobga olinishi lozim. Aks holda “eng to‘liq matn” yaratiladi, ammo “eng to‘liq kompozitsiya” tiklanmay qolishi mumkin.

“Ikki hayot” kontseptsiyasi: matn va retseptsiya (talqin)

Uvaysiy devonini qo‘lyozma va nashr munosabatida o‘rganish natijasida uning shartli ravishda “ikki hayoti” haqida so‘z yuritish mumkin. Birinchi hayot – qo‘lyozmadagi hayot. Bu yerda matn muayyan kodikologik ob’yekt, janriy tizim, she’rlar ketma-ketligi, hamd va na’t she’rlaridan iborat diniy-poetik kirish-muqaddima, taxmislar va boshqa poetik shakllar bilan yaxlit holda mavjud. Ikkinchi hayot – nashrlardagi hayot. Bu yerda matn saralanadi, tartiblanadi, ba’zan qisqaradi, ba’zan boshqa nusxalar hisobiga kengayadi va yangi kitobxon auditoriyasi uchun qayta shakllanadi.

Bu “ikki hayot”dan birini haqiqiy, ikkinchisini soxta deb baholash to‘g‘ri emas. Nashrlar bo‘lmaganida Uvaysiy merosi keng jamoatchilikka yetib bormas edi. 1959 va 1963 yilgi nashrlar, keyingi to‘plamlar, tadqiqot va darsliklar shoirani milliy adabiyot tarixining muzayyan sahifasiga muhrlari. Ayni paytda nashrlar orqali shakllangan qiyofani qo‘lyozma bilan qayta qiyoslash yangi ma’nolarni ochadi.

Qo‘lyozma kitobxonga Uvaysiyning o‘ziga yaqinroq tarixiy matniy muhitini taklif qiladi. Nashr esa har bir davrning Uvaysiyni qanday o‘qiganini ko‘rsatadi. Demak, qo‘lyozma mualliflik merosining tarixi bo‘lsa, nashr – uning retseptsiya-talqini tarixi hamdir. Bu ikki manbani birga o‘qish shoira poetikasini kengroq anglashga imkon beradi.

Ayniqsa, diniy-irfoniy qatlamning nashrlardagi salmog‘ini qo‘lyozma bilan qiyoslash adabiy tanlov mexanizmlarini ko‘rsatadi. Qiyosiy kuzatuvlar Uvaysiyning hamd, na’t va tasavvufiy mazmundagi ayrim she’rlari nashrlarda markaziy o‘rin olmaganini ko‘rsatadi. Natijada, o‘quvchi tasavvurida Uvaysiy, ishqiy lirik, o‘z davri jamiyatidagi dardli ayol taqdiri shoirasi sifatida namoyon etilgan. Qo‘lyozmaga qaytish bu qiyofani inkor etmaydi, balki unga diniy-irfoniy va intertekstual qatlamlarni ham qo‘shadi.

Shu nuqtai nazardan Uvaysiy merosini o‘rganishda “matnni tiklash” bilan “muallif qiyofasini tiklash” o‘rtasida farq bor. Matnni tiklash – variantlar, nusxalar, tushib qolgan bayt va she’rlarni aniqlash. Muallif qiyofasini tiklash esa qaysi janrlar, qaysi mavzular, qaysi ma’naviy mazmunlar va qaysi adabiy munosabatlar bir butun poetik dunyoqarashni tashkil etganini anglashdir. Tanqidiy, yig‘ma nashr esa bu ikki vazifani birlashtiradi.

Bunday yondashuv faqat Uvaysiy uchun emas, umuman Qo‘qon adabiy muhitidagi ayol shoirlar merosini tadqiq etish uchun ham metodologik ahamiyatga ega. Nodira, Mahzuna, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Niso va Xoniy kabi ijodkorlar merosi ham qo‘lyozma, bayoz, devon, keyingi nashr va tadqiqotlar kesimida o‘rganilganda yangi natijalar berishi mumkin. Ayollar she’riyati tarixi faqat “shoiralar ro‘yxati” emas, balki matnlarning saqlanishi, saralanishi va qayta talqin qilinishi tarixi hamdir.

She’riy muqaddima: hamddan na’tgacha

Mumtoz adabiyotda asarni hamd, munojot va na’t bilan boshlash an’anaviy o‘ziga xos muqaddima tarzidagi tizimning muhim qismi hisoblanadi (Mallayev, 1971, 10–12). Devon tuzishda ham mazkur an’ana poetik printsip sifatida mustahkamlangan (Hayitmetov, 1981, p. 19).

Nodira merosida debocha mavjud bo‘lib, unda hamdu sano, na’tdan so‘ng shaxsiy kechinmalari, Amir Umarxon davridagi baxtli hayoti va uning vafotidan keyingi ahvoli, faoliyati, devon tuzish sababi kabi komponentlar yaxlit nasriy-nazmiy muqaddimada ifodalangan. Uvaysiyda esa bunday debocha yo‘q, ammo hamd va na’t g‘azallarining devon boshida joylashishi poetik muqaddima vazifasini bajaradi. Ya’ni, nasriy debocha o‘rnini she’riy kompozitsiya egallaydi. Bu holatni Uvaysiy devonining o‘ziga xos tarkibiy belgilaridan biri sifatida baholash mumkin.

Uvaysiy devonidagi dastlabki g‘azallardan boshlab ilohiy madh, tavhid va Rasulullоh vasfini ketma-ket kelishi qo‘lyozmaning diniy-tasavvufiy jihatdan kompozitsiyasida muayyan mantiq mavjudligini ko‘rsatadi:

Hayyi qadim hazrati mahbubi “lofato”,
Sattor, Rahim, G‘afur jami u’yubino (Devon, № 1837, v. 2a).

Baytda Uvaysiy Allohning azaliyligi, boqiyligi va rahmat-mag‘firat sifatlarini bir butun ma’naviy tizimda ifodalaydi. “Hayyi qadim” birikmasi Allohning azaldan tirik, hayoti ibtido va intihoga bog‘liq bo‘lmagan Zot ekanini anglatadi. “Lo fato” ifodasi esa bayt kontekstida “o‘tib ketmaydigan, yo‘q bo‘lmaydigan” mazmunida talqin qilinib, “Hayyi qadim” ma’nosini yanada kuchaytiradi. Shu tariqa birinchi misrada Allohning azaliy va abadiy borligi ta’kidlanadi.

Ikkinchi misradagi Allohning bandaga munosabatini ifodalovchi Sattor – ayblarni yopuvchi, Rahim – rahm-shafqat ko‘rsatuvchi, G‘afur – gunohlarni kechiruvchi kabi go‘zal ism-sifatlarini “jami u’yubino” – “barcha ayblarimiz” ma’nosiga bog‘laydi. Misrada Alloh “barcha ayblarimiz”ni yopuvchi, rahm-shafqat ko‘rsatuvchi, gunohlarimizni kechiruvchidir mazmunini ifodalovchi, insonning nuqsonli va ojizligini anglatuvchi munojot hosil bo‘ladi. Demak, baytning birinchi misrasida ilohiy zotning azaliylik va zavolsizlik sifati, ikkinchi misrada esa Uning shafqati, satri (pinhon tutuvchi) va mag‘firatliligi kabi sifatlari ochiladi. Bu bilan shoira hamdning dastlabki baytidayoq Allohni faqat ulug‘lash bilan cheklanmay, “boqiy Zot va foniy, nuqsonli banda” qarama-qarshiligini yuzaga keltirib, hamd mazmuniga munojotga xos tavba, umid va mag‘firat istagini ham singdira oladi.

Na’tlarga o‘tilganda esa poetik kompozitsiyaning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Na’tlarni vasf va me’rojnoma mazmunida tasniflash mumtoz adabiyot tadqiqotlarida qayd etilgan (G‘afforova, 2001, 10–13). Uvaysiy ijodida na’t she’rlarning nafaqat g‘azal, balki muxammasi tab’i xud (mustaqil muxammas) va musaddas janridagi namunalari ham uchraydi:

Ey xojai mahjabini Toha,
Sulton shahi Yasrib ila Batho,
Mushtoqi labing erur Masiho,
Yuzungdin o‘lub bu olami ihyo,
Mahbubi karimi Hayyi mavlo,
Maqsudi vujudi kulli ashyo (DU, v. 86a).

Bu musaddas-na’tda Uvaysiy Muhammad a.s. obrazlarini oddiy madh doirasida emas, balki nubuvvat, ilohiy muhabbat va borliqning ma’naviy maqsadi bilan bog‘liq holda talqin qiladi:

Ey xojai mahjabini Toha,
Sulton shahi Yasrib ila Batho,

misrasidagi “Toha” Qur’oni karimning shu nomdagi 20-surasi boshidagi harfiy ifoda bo‘lib, musulmon she’riyatida Muhammad alayhissalomning muborak nom va laqablaridan biri sifatida ham qo‘llaniladi. “Mahjabin” – forsiy *mah* (“oy”) va *jabin* (“peshona, chehra”) birikmasidan hosil bo‘lib, “oydek nurli chehrali” ma’nosini beradi. Demak, shoira Payg‘ambar a.s.ni “Toha” laqabli, nurli chehra sohibi sifatida madh etmoqda.

“Yasrib” va “Batho” na’t poetikasida Payg‘ambar alayhissalom hayoti bilan bog‘liq ikki muqaddas makon – Madina va Makkani anglatuvchi timsollardir. Batho – Makkani, Payg‘ambar a.s.ning tavalludi va ilk vahiy davri kechgan muqaddas zaminni ifodalaydi. Yasrib – Madinaning hijratdan avvalgi nomi bo‘lib, u Rasulullohning hijrati va islomning shakllanishi bilan bog‘lanadi. Shu bois “Sulton shahi Yasrib ila Batho” ta’rifida oddiy geografik ishora emas, balki Muhammad alayhissalomning payg‘ambarlik hayotining ikki asosiy makonini bir poetik ifodada birlashtiradi. Makka va Madinaning yonma-yon keltirilishi na’tda Rasulullоh siyratining Makka davridan Madina davrigacha bo‘lgan ma’naviy-tarixiy yaxlitligini ifodalab, u zotning har ikki muqaddas makon bilan bog‘liq yuksak maqomini ulug‘lashga xizmat qiladi.

Mushtoqi labing erur Masiho,
Yuzungdin o‘lub bu olami ihyo,

Bu ikki misra na’tning eng kuchli badiiy nuqtalaridan biri. “Masiho” – Iso alayhissalomga talmeh. Diniy va mumtoz adabiyotda Iso payg‘ambarning nafasi o‘likka jon bag‘ishlovchi “nafasi Masih” timsoli bilan mashhur. Uvaysiy esa an’anaviy obrazni yanada baland poetik darajaga ko‘taradi: odatda boshqalarga hayot bag‘ishlovchi Masihning o‘zi Muhammad alayhissalomning labiga mushtoq ekani tasvirlanadi. Biroq bu o‘rinda “lab” oddiy tashqi go‘zallik unsuri emas, u Rasulullоh og‘zilaridan chiqqan kalomi hikmat, vahiyni yetkazuvchi nutq, hadis va ma’naviy hidoyat ramzini anglatadi. “Masiho labingga mushtoq” degan ifoda Payg‘ambar a.s. kalomining ruhiy hayot baxsh etuvchi lafzini ifodalaydi.

“Yuzungdin o‘lub bu olami ihyo” misrasi esa bu ma’noni yanada kengaytiradi. “Ihyo” – tirilish, hayotga kelish. “Masiho” va “ihyo” so‘zlari o‘rtasida kuchli ma’naviy tanosub bor: Iso – tiriltirish mo‘’jizasi bilan bog‘liq obraz. Muhammad alayhissalomning “yuzlari” bu yerda faqat chehra emas, balki zuhur, nur, hidoyat va risolat ma’nolaridagi olamning ma’naviy tirilishi sifatida tasvirlanadi.

Mahbubi karimi Hayyi mavlo,
Maqsudi vujudi kulli ashyo.

Muxammasning mazkur misrasidagi “Hayy” – “abadiy tirik”, Allohning sifatlaridan, “Mavlo” – ega, Parvardigor, homiy. Shuning uchun “Mahbubi karimi Hayyi mavlo” – “Hayy

va Mavlo bo‘lgan Allohning aziz va karim mahbubi” degan mazmunni beradi. Bu yerda Payg‘ambar a.s.ning maqomi ilohiy muhabbat bilan asoslanadi: u faqat ummatning seviklisi emas, balki Haqning mahbubi sifatida madh etiladi.

Oxirgi *“Maqsudi vujudi kulli ashyo”* misrasi esa butun bandning irfoniy cho‘qqisini tashkil qilib, lug‘aviy jihatdan “barcha mavjudot vujudining maqsadi” degan ma’noni anglatadi. Bu fikr tasavvufiy va na’tnavislik an’anasida Muhammad alayhissalomni yaratilishning ma’naviy g‘oyasi, borliqning kamol timsoli sifatida talqin qilish bilan bog‘liq. Mumtoz adabiyotda bu qarash ko‘pincha nuri Muhammadiy kontseptsiyasi va keng tarqalgan “Lavlaka lama xolaqtu-l-aflak” – “Sen bo‘lmaganingda falaklarni yaratmagan bo‘lardim” (Usmon, Turar, 1999, 139) hadis mazmunidagi irfoniy rivoyatlar bilan uyg‘unlashadi.

Musaddasning mazkur bandi mazmunini umumlashtiradigan bo‘lsak, unda

Payg‘ambar a.s. obrazlari bir necha ma’no qirralari orqali yuksaltiriladi. “Toha”, “Yasrib”, “Batho” kabi diniy va toponimik ishoralar uning nubuvvat maqomi hamda muqaddas tarix bilan bog‘liqligini belgilasa, “Mushtoqi labing erur Masiho” misrasida Iso alayhissalomga qilingan talmeh orqali Muhammad alayhissalomning ma’naviy martabasi “Masiho” va “ihyo” obrazlarining semantik uyg‘unlashtiradi. Natijada, an’anaviy o‘likka jon bag‘ishlovchi Masihning o‘zi Payg‘ambar labi – lafziga mushtoq etib tasvirlanadi, uning yuzi esa butun olamning ma’naviy ihyosi manbai sifatida talqin qilinadi. Band oxiridagi *“Mahbubi karimi Hayyi mavlo // Maqsudi vujudi kulli ashyo”* misralari esa na’t mazmunini irfoniy darajaga ko‘tarib, Muhammad alayhissalomni ilohiy muhabbatga sazovor zot va borliqning ma’naviy maqsadi sifatida namoyon etadi. Na’t-musaddasni oddiy madhdan nubuvvat, ilohiy muhabbat va vahdati vujud falsafasi uyg‘unlashgan poetik talqinga aylantiradi.

Ayol ijodkor lirik qahramoni va diniy-adabiy an’ana

Uvaysiy va Nodira ijodidagi hamd-na’tlarni qiyoslash Qo‘qon adabiy muhitida diniy-tasavvufiy mavzuning ayol ijodkorlar poetik tafakkurida qanday namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi. Nodira devonida debochadagi hamd va na’tlar, devon tuzish tarixi, shaxsiy taqdir va ijtimoiy-madaniy faoliyati, devondagi hamd va na’tlar bir kompozitsion makonda joylashadi. Uvaysiyda esa diniy poetik mavzu, asosan, she’riy janrlar orqali ifodalanadi. Har ikki holatda ham ayol muallif diniy an’anani shaxsiy tajriba va poetik tafakkur bilan qayta ishlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu masala, ayniqsa, muhim, chunki mumtoz adabiyotda hamd va na’t an’anaviy muqaddima tizimining muhim qismi hisoblanadi (Mallayev, 1971, 10–12; Hayitmetov, 1981, p. 19). Hamdning tavhid va munojot mazmunidagi ko‘rinishlari ham maxsus tadqiqotlarda farqlangan (G‘afforova, 2018, 9, 12–14). Nodira va Uvaysiyda esa mazkur shakllar shaxsiy kechinma, irfoniy mushohada va badiiy tasvir bilan boyitiladi. Uvaysiy hamdlarida Allohning ilohiy qudrati, bandaning ojizligi va shukr idroki birlashsa, na’tlarida Qur’on oyatlariga ishoralar Muhammad a.s. badiiy obrazi, tavsiflari bilan uyg‘unlashadi.

Shoiraning diniy-irfoniy she’riyatida lirik qahramon ham ikki tomonlama harakat qiladi. Bir tomondan, u o‘zini ojiz banda sifatida kamtarona ifodalaydi; ikkinchi tomondan, o‘ta murakkab diniy va poetik talqinlarni erkin boshqaradi. “Toha”, “va-sh-shamsu va-z-zuho”,

“va-l-layl”, “va-n-najm” kabi talmehlardan foydalanish Qur’on oyatlari matnni bilish bilan birga, uni mumtoz tashbeh, tazod va ramz tizimiga moslashtirish mahoratini ham talab qiladi.

Shu nuqtada “ayol ijodi”ni faqat biografik yoki gender belgisi bilan cheklash to‘g‘ri emas. Uvaysiy poeziyasi mumtoz adabiyotning umumiy bilim tizimi – Qur’on, hadis, tasavvufiy istilohlar, Navoiy va Fuzuliy an’anasi, aruz va janr qoidalari – ichida yaratilgan. Biroq u shu tizimga o‘z ovozini qo‘shadi. Bu ovozning o‘ziga xosligi otinlik maqomi, shaxsiy musibat, farzand va ayriliq jabri, Qo‘qon adabiy muhitidagi faol ishtiroki va ayol ijodkor sifatidagi adabiy pozitsiya bilan bog‘liq.

Asrlar osha salaflari bilan she’riy muloqot: g‘azal, taxmis va talqin

Ma’lumki, muxammasning taxmis turi mumtoz adabiyotda mavjud matnni takrorlash emas, balki unga yangi ovoz, yangi ma’no va yangi tasvir qo‘shish usulidir (Nazarov et al., 1992, p. 222; Ro‘ziboyev, 2022, 19–20, 35–38).

Uvaysiy devonida salaflari bilan ijodiy musobaqasini namoyon etuvchi taxmislari ham muhim o‘rin tutadi. Shoira Navoiy, Fuzuliy, Amiriy va Vazir g‘azallariga taxmislar bog‘lagan. (Asqarov, 2022, 28–29; Isakova, 2017, 150–152). Biroq ularni faqatgina “ta’sir” tushunchasi bilan izohlash cheklangan natija beradi. Taxmisda shoira avvalgi g‘azalning har bir baytiga uch misra qo‘shib, mazmunni o‘z ijodiy nuqtai nazaridan qayta tashkil etadi. Natijada, salaflari matni saqlanadi, ammo unga Uvaysiyning shaxsiy talqini qo‘shiladi. Shu ma’noda taxmis – adabiy an’ana va individual ijod bir vaqtda namoyon bo‘ladigan janrlardan biri hisoblanadi.

Navoiy g‘azallariga bog‘langan taxmislarda falsafiy-axloqiy va ishqiy motivlar Uvaysiyning shaxsiy poetik tajribasi bilan uyg‘unlashadi (Uvaysiy, 1959, 59–60, 104–105, 152–153). Fuzuliy g‘azallariga taxmislarda ishqning shiddati, hijron va ruhiy iztirob motivlari yangicha rivojlantiriladi (Uvaysiy, 1959, 158–164). Amiriy va Vazir g‘azallariga bog‘langan taxmislar esa Qo‘qon adabiy muhiti ichidagi bevosita badiiy muloqotni ko‘rsatadi (Uvaysiy, 1959, 87–88, 133–146, 167–168, 178–179, 191–192, 231–232).

Taxmisning ahamiyati shundaki, u Uvaysiyni faqat “ayol shoir” sifatida emas, uni mumtoz adabiy an’anani davom ettirgan va unga ijodiy yangilik olib kira olgan shoira sifatida namoyon etadi. U Navoiy yoki Fuzuliy matniga ergashmaydi, balki ularning misralari bilan badiiy musobaqaga kirishadi, avvaliga uch misra orqali yangi kontekst hosil qiladi va keyin salaflari baytidagi ma’noni shu kontekst ichida qayta jilolantiradi. Taxmisdagi uch qo‘shimcha misra ma’noni tayyorlaydi, kuchaytiradi yoki boshqa yo‘nalishga burib, so‘nggi ikki misradagi ma’no ta’sirini o‘zgartiradi.

Shu nuqtai nazardan taxmislar Uvaysiy devonida “intertekstual arxiv” vazifasini ham bajaradi. Ular shoiraning qaysi adabiy an’analarni o‘zlashtirgani, qaysi shoirlarga ijodiy suhbatdosh bo‘lganini va o‘zini qaysi poetik silsila ichida tasavvur qilganini ko‘rsatadi.

XULOSA

Uvaysiy devonini qo‘lyozma va nashr munosabatida o‘rganish shoira merosining ikki parallel tarixini ko‘rsatadi. Qo‘lyozmada devon muayyan kompozitsion butunlikka ega: hamd, na’tlar, munojotlar o‘ziga xos diniy-tasavvufiy muqaddima vazifasini bajaradi, taxmislar esa salaflarga ergashish bilan birga ijodiyligini namoyon etadi. Janriy va mazmuniy qatlamlar bir-birini to‘ldirib, Uvaysiyning ijodiy poetik dunyoqarashini shakllantiradi.

Nashrlarda esa bu yaxlitlik turli darajada qayta tartiblangan. Ayrim she’rlarning tushib qolishi, boshqa nusxalardan matnlarning kiritilishi, janriy belgilash va saralash tamoyillari natijasida Uvaysiy ijodining kitobxonga yetib borgan qiyofasi qo‘lyozmadagi manzaradan farq qiladi. Bu farq nashrlarning ahamiyatini kamaytirmaydi, aksincha, ularni shoira retseptsiyasining mustaqil tarixi sifatida o‘rganishga asos beradi.

Qo‘lyozmadagi 27 g‘azal, 7 muxammas va 2 musaddasning mavjud nashrlarga kiritilmagani matnshunoslik uchun muhim dalildir. Lekin bu raqamlardan ham muhimroq natija – tushib qolgan matnlar devonning umumiy kompozitsion va mazmunan nisbatini o‘zgartirishi mumkinligidadir. Ayniqsa, diniy-irfoniy she’rlarning qisqarishi shoiraning poetik qiyofasidagi muhim chizgilarni xiralashtiradi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi Uvaysiy devonining qo‘lyozma va nashriy holatini ikki alohida emas, o‘zaro bog‘liq kompozitsion va retseptiv qatlam sifatida talqin qilishdan iborat. Shu bois, kelgusi tadqiqotlarda “qaysi she’r haqiqiy?” degan savol bilan cheklanmay, “Uvaysiy o‘z ijodini qanday poetik tizim sifatida qurgan va bu tizim keyingi nashrlarda qanday o‘zgargan?” degan masalani markazga qo‘yish maqsadga muvofiq. Ana shunda qo‘lyozma manbashunosligi, matnshunoslik, janr poetikasi va talqin tarixi bir nuqtada tutashadi.

Uvaysiy devoni “ikki hayoti” – qo‘lyozmadagi tarixiy-kompozitsion hayoti va nashrlardagi ijtimoiy-madaniy hayoti – birgalikda o‘rganilgandagina shoiraning adabiy merosi to‘laroq namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv Qo‘qon adabiy muhitidagi boshqa ayol ijodkorlar merosini ham qo‘lyozma, nashr va talqin tarixining yagona tizimida o‘rganish uchun samarali metodologik yo‘nalishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, V. (1980). O‘zbek adabiyoti tar*ixi. XVII asrdan XX asr ikkinchi yarmi*gacha. (2-kitob). Toshkent: O‘qituvchi.
2. Adabiy turlar va janrlar. (1992: 2-jild). Toshkent: Fan.
3. Adizova, I. (2011). Uvaysiy ijodida janrlar takomili. Toshkent: Muharrir.
4. Adizova, I. (2020). Uvaysiy she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. Toshkent.
5. Akün, Ö. F. (1994). Divan edebiyatı. *Türkiye Diyanet Vakfi İslâm Ansiklopedisi*.
6. Asqarov, D. (2022). Uvaysiy lirikasida muxammas shakli. In *Global dunyoda ilm-fan va ta’limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari* (pp. 27–31). –Stars International University.
7. Cho‘lpon. (1933). Uvaysiy. *Yorqin tur*mush, (3–4). Toshkent.
8. De Blois, F. (1995). Dīvān III: Collected works of a poet. *Encyclopaedia Iranica, VII*(4), 432–438.
9. De Blois, F. (1995). Dīvān III: Collected works of a poet. *Encyclopaedia Iranica, VII*(4), 432–438.
10. Erkinov, A. (2011). Temuriylar – Qo‘qon xonligi sulolaviy legitimatsiyasi uchun model sifatida (XIX–XX asr boshi saroy bayozlari misolida). *Sharqshunoslik*. № 15, 20–33.

11. Eşonova, S. (2026). *XIX. Yüzyıl Hokand şairesi Cihan Atin Üveysî’nin edebî mirası: inceleme, yorum ve edebî etkileşimler.* I. Uluslararası Türk Dünyasında Kültür ve Değerlerin İzleri Sempozyumu Bildiriler Kitabı. Hazar Üniversitesi, Bakü, Azerbaycan, 29 Nisan, 534–542.
12. Fitrat. (2000). Tanlangan asarlar (2-jild). Toshkent: Ma’naviyat.
13. G‘afforova, Z. (2001). Navoiyning hamd va na’t g‘azallari. Toshkent: Ma’naviyat.
14. G‘afforova, Z. (2018). Alisher Navoiy hamd va na’t g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy tahlili *[Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avto*referati]. Samarqand.
15. Günay, K. Ali Şîr Nevâî. Türkiye Diyanet vakfı. İslâm Ansiklopedisi. https://islamansiklopedisi.org.tr/ali-sir-nevai?utm_source=chatgpt.com
16. Haqqulov, I. (1982). Uvaysiy she’riyati. Toshkent: Fan.
17. Hayitmetov, A. (1981). Alisher Navoiy lirikasining ba’zi masalalari. *Navoiy va ijod saboqlar*i. Toshkent: Fan.
18. Ibrohimova, E. (1961). Uvaysiy dostonlari haqida. *O‘zbek tili va adabiyoti masalala*ri, (6), 38–41.
19. Ibrohimova, E. (1963). Uvaysiy*: Monografiy*a. Toshkent: O‘zfanakadnashr.
20. İpekten, H. (1994). *Eski Türk edebiyatı: Nazım şekilleri ve aruz*. İstanbul: Dergâh Yayınları.
21. Isakova, B. (2017). Uvaysiy ijodida Amiriyning o‘rni. *Amiriy va Qo‘qon adabiy muhiti: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materialla*ri, 150–152. Qo‘qon.
22. Isakova, B. (2020). Navoiy ijodining ta’sir masalalari. *Uvaysiy she’riyati misolid*a. O‘sh: Axborot.
23. Isakova, B. (2023). Uvaysiy she’riyatida irfoniy mazmun va Karbalonoma dosto*n*i [Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent.
24. Islomov, H. (1983). Uvaysiyning “Qissai purg‘ussa” asari qo‘lyozmas*i*. – *Adabiy me*ros, (3), 72–74.
25. Islomova, S. (2017). Uvaysiy lirikasining matniy tadqiqi va poetikasi *[Magistrlik dissertatsiyas*i]. Andijon.
26. Jalolov, T. (1959). O‘zbek shoiralari. (1-kitob). Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.
27. Jumaxo‘ja, N., & Adizova, I. (2019). O‘zbek adabiyoti tar*ixi. XVI–XIX asrning birinchi y*armi. Toshkent: Noshir.
28. Mallayev, N. (1971). An’anaviy muqaddimot haqida. *O‘zbek tili va adabiy*oti, (1), 10–12.
29. Navruzova, N. (2021). XIX asr shoiralar ijodida badiiy san’atlar jilosi (Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Anbar Otin she’riyati misolida). *Oriental Renaissance, , 1*(10), 961–967
30. O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiy*a*si (1945). (2-tom). Toshkent.
31. O‘zbek adabiyo*t*i. (1959). (III tom). Toshkent: O‘zadabiynashr.
32. O‘zbek poeziyasining antologiy*a*si. (1948). Toshkent.

33. Olimjonov, A. (1957). Orzu kuychisi. *O‘zbekiston xotin-qizl*ar, (2), 23–26. Toshkent.
34. Pardayev, Q.U. (2025). Muqimiy’s Naziras and Takhmises of Navoiy’s Ghazals. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 6*(3), 503–507.
35. Qayumov, A. (1961). Qo‘qon adabiy muhiti. Toshkent: O‘zfanakadnashr.
36. Qayumov, P. (2006). Tazkirat ush-shuaro (II kitob; Nashrga tayyorlovchi A. Qayumov). Toshkent.
37. Qo‘qon xonligi tarixi nazmiy manbalard*a (“Voqeoti Muhammad Ali Alixon” va “Jangnomai Xudoyorxoniy*”). (2016). (Nashrga tayyorlovchi: H. Lutfillayev, tadqiqot qismi va izohlar muallifi Sh. Qo‘ldoshev,). Toshkent: Akademnashr.
38. Qobilova, Z.B. (2007). Amiriy va uning adabiy faoliyati. [Filol. fan. nomz. ... diss]. Toshkent.
39. Rashidov, O‘. (1958). Uch shoira. Toshkent: O‘zdavadabiynashr.
40. Ro‘ziboyev, T. (2022). Taxmis: Genezis, tadrij va poetika. Toshkent: Bookmany print.
41. Sobraniye vostochnix rukopisey Akademii nauk Respubliki Uzbekistan. Literatura (Divan*i)* (2018). T. I. X.M. Lutfillayev, S.N. Fayziyeva, & O.R. Madaliyeva, podgotovka k izdaniyu. Tashkent: Navruz.
42. Sobraniye vostochnix rukopisey Akademii nauk Respubliki Uzbekistan. Literatura (Divan*i*). (2023). T. II; S. Eshonova & D. Djurayev, podgotovka k izdaniyu i sostavleniye ukazateley. Tashkent: Fan.
43. Szuppe, M. (2017). Circulation des lettrés et cercles littéraires: Entre Asie centrale, Iran et Inde du Nord (XVe–XVIIIe siècle). *Annales. Histoire, Sciences Sociales, 59*(5–6), 997–1018.
44. Tugalova, M. E. (2025). The literary and cultural environment and historical processes during the Kokand Khanate. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 4*(5), 887–889. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.jmsi.123855.
45. Umarova, S. (2022). Diwanism in the literary environment of Khiva in the XIX – early XX centuries. *International Journal of Social Science Research and Review, 5*(8), 196–200. https://doi.org/10.47814/ijssrr.v5i8.548.
46. Usmon, Turar. (1999). Tasavvuf tarixi. – Tarjimon: Hasan N. – Toshkent: Istiqlol.
47. Uvaysiy she’riyatid*a*n (1980). Tuzuvchi: M. Qodirova. Toshkent.
48. Uvaysiy, & Nodira. (1992). Uvaysiy. *Nodira*. Nashrga tayyorlovchi: M. Qodirova. Toshkent.
49. Uvaysiy, & Nodira. (1993). Uvaysiy. *Nodira: O‘zbek shoiralari bay*ozi (Tuzuvchi va so‘z boshi muallifi M. Qodirova). Toshkent.
50. Uvaysiy, & Nodira. (2022). Uvaysiy. Nodira: *Turkiy adabiyot durdonalar*i I. Haqqulov & Z. Rahmonova,). Toshkent: O‘zbekiston.
51. Uvaysiy. (1959). Devon (A. Qayumov & E. Ibrohimova, nashrga tayyorlovchilar). Toshkent: O‘zfanakadnashr.
52. Uvaysiy. (1963). Devon (H. Razzoqov, I. Qosimov, G‘. Abdullayev, & N. Mamatov, nashrga tayyorlovchilar). Toshkent: O‘zadabiynashr.

53. Uvaysiy. (1983). Ko‘ngil gulzor*i* (nashrga tayyorlovchilar. Qosimov & A. Valixonov. Toshkent.
54. Uvaysiy. (2010). Mazmun ma’dani. *She’rla*r (Tuzuvchilar A. Turdialiyev & U. Ne’matov. Toshkent.
55. Vadud Mahmud. (2007). Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat.